

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzarb
muammolari**

4-son (6-jild)

2026

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI**

№ 4 (6) – 2026

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2026

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdulkaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Sulaymanova Dildora Nazarovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Махмудова Нигора Баротовна</i> ИСТОРИЧЕСКИЙ ОБЗОР ПЕНИТЕНЦИРНОГО ДЕЛА В КОЛОНИАЛЬНОМ ТУРКЕСТАНСКОМ КРАЕ, ПО ОТЧЁТАМ РЕВИЗИИ СЕНАТОРА К.К.ПАЛЕНА	10-15
<i>Esonov Ziyodbek Yuldashevich</i> RISHTON KULOLCHILIK MAKTABI VA UNING LOKAL XUSUSIYATLARI ETNOGRAFIK TAHLILI	16-20
<i>Абдиев Рузикул Буронович</i> ИСТОРИКО-ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ СОХРАНЕНИЯ АРХИТЕКТУРНОГО НАСЛЕДИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ	21-27
<i>Абдужаббаров Шерзод</i> ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ, ФУНКЦИИ И ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ СУЩЕСТВОВАНИЯ И РАБОТЫ СОВЕТА ТУРКЕСТАНСКОГО ГЕНЕРАЛ-ГУБЕРНАТОРА	28-33
<i>Boymurodov Shuxrat Toshkentovich</i> MUSTAQILLIK YILLARIDA O'RTA MAXSUS TA'LIM, SOHASIDA MA'NAVIY YANGILANISH	34-38
<i>Жураева Нафиса Олимовна</i> ТОПОГРАФИЧЕСКОЕ ВЛИЯНИЕ КУЛЬТОВЫХ СООРУЖЕНИЯХ НА ФОРМИРОВАНИЕ ГУЗАРОВ ГОРОДА БУХАРЫ	39-45
<i>Safarov Akmal</i> SUV XO'JALIGI SOHASI UCHUN MALAKALI KADRLAR TAYYORLASHNING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	46-52
<i>Tursunova Mahliyo Sarvar qizi</i> XORIJIIY INVESTITSIYALAR ISHTIROKIDAGI KORXONALAR FAOLIYATINING HUDUDIIY IJTIMOIIY-IQTISODIIY HAYOTGA TA'SIRI (JIZZAX VILOYATI MISOLIDA, 1991- 2026 -YILLAR).....	53-57
<i>Mardiyeva Guzal Karimovna</i> SAMARQAND VILOYATIDA SOVET DAVRINING DASTLABKI YILLARIDA XOTIN-QIZLARINING OLIY TA'LIMGA KIRISH IMKONIYATLARI VA CHEKLOVLAR	58-62
<i>Kenjayev Elyor Sattorovich</i> YANGI O'ZBEKISTONNI BARPO ETISHDA STRATEGIK ISLOHOTLAR: TARAQQIYOT VA MA'NAVIY YUKSALISH UYG'UNLIGI	63-70
<i>Polvonov Kozimbek Naimovich, Polvonov Anvar Naimovich</i> QASHQADARYODAGI YETAKCHI O'QUV DARGOHLARIDAN BIRI	71-79
<i>Mo'minova Gavxar Esanovna</i> O'ZBEKISTON SAVDO TARIXINI O'RGANISHDA DAVLAT ARXIVLARI HUJJATLARINING O'RNI	80-85
<i>Norboyev Sarvar Qahramon o'g'li</i> O'ZBEKISTON TARIXIIY SHAHARLARINING XALQARO MIQYOSDA TAN OLINISHI	86-90

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Tillabaeva Umida Makhsumovna, Talipova Nigora Tulkunovna</i> DIGITALIZATION AND EMPLOYABILITY: A BIBLIOMETRIC ANALYSIS OF RESEARCH TRENDS (2018–2025)	91-100
<i>Xudoyorov Lochinbek Bahromovich</i> O'ZBEKISTON SERVIS SOHASIDA XIZMATLAR SIFATI KO'RSATKICHLARINING DINAMIK TAHLILI	101-107
<i>Toxirov Akbarxon Toirxon o'g'li</i> INNOVATSION MARKETING INDEKSI ASOSIDA KORXONALARNING IQTISODIY XAVFSIZLIGI VA RAQOBATBARDOSHLIGINI BAHOLASH METODOLOGIYASI	108-113
<i>Ismoilov Bekzod Muxidinovich</i> GLOBALLASHUV SHAROITIDA TURIZM SOHASINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI	114-118
<i>Sadullayev Rasulbek Palvanbayevich</i> O'ZBEKISTONDA EKOLOGIK MUAMMOLARNING IJTIMOIIY-IQTISODIY OQIBATLARI KELIB CHIQISHI	119-135
<i>Nishonova Shaxnozaxon</i> ZAMONAVIY IQTISODIY TIZIM SHAROITIDA LOYIHALARNI BOSHQARISH YONDASHUVLARI	136-140
<i>Fayziyeva Aziza Azamat qizi</i> SURXONDARYO VILOYATIDA KICHIK TADBIRKORLIK FAOLIYATINING BANDLIK KO'RSATKICHLARIGA TA'SIRI: ARIMA MODEL ASOSIDA PROGNOZ VA TAHLIL	141-154

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Ismoilov Maxamadixon Isroilovich</i> IQTISODIY RATSIONALIZM: TUSHUNCHA, EVOLYUTSIYA VA NAZARIY CHEGARALAR.....	155-165
<i>Beshimov Xamidjon Sayidovich</i> O'ZBEKISTONDA KASABA UYUSHMALARINING IJTIMOIIY ADOLATNI TA'MINLASHDAGI AHAMIYATI	166-175
<i>Obidov Asliddin Shavkatovich</i> SAID AD-DIN AL-FARG'ONIY TA'LIMOTIDA ONTOLOGIK VA GNOSEOLOGIK ASOSLAR	176-181
<i>Abduraxmov Xasan Ibroximovich</i> KOGNITIV-AXBOROT MUHITINING SUN'IY INTELLEKT SHAROITIDA YOSHLAR IJODKORLIGI VA TASHABBUSKORLIGIGA TA'SIRI.....	182-188
<i>Xolova Umida Umedovna</i> "O'RTA ASRLAR FALSAFIY TAFAKKURIDA MA'RIFAT KONSEPSIYASINING TARIXIY-FALSAFIY EVOLYUTSIYASI: TEOLOGIK VA MA'RIFIY BOSQICHLAR TAHLILI"	189-192
<i>Rajabova Rohila Zakirovna</i> AHMAD DONISH'S PHILOSOPHICAL VIEWS IN HIS WORK "NAVODIR UL-VAKOE"	193-197
<i>Kabulov Jahongir Bakhodirovich</i> SEPARATIZMNING ASIMMETRIK XUSUSIYATI.....	198-202
<i>Eshkuvvatov Jaloliddin</i> MADANIYATLARARO MULOQOTDA MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLAR SINTEZI..	203-210

Jomuradov Ikrom Ilxom o'g'li
IMMANUIL KANT VA ZAMONAVIY FALSAFADA NOUMENAL ERKINLIK MUAMMOSI:
FENOMENAL DETERMINIZM BILAN BOG'LIQ ANTINOMIK ZIDDIYATNING DOLZARB
TALQINLARI..... 211-215

Rustamova Madina
OMMAVIY MANIPULYATSIYANING DESTRUKTIV XUSUSIYATI:
TAHDIDLAR VA OQIBATLAR..... 216-220

Yodgorov Alisher Nurmuhammadovich
AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA IJTIMOYIY MUNOSABATLARNING
TRANSFORMATSIYASI..... 221-225

10.00.00 - FILOLOGIYA FANLARI

Isanova Feruza Tulqinovna
O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA XALQARO HUQUQ TERMINOLOGIYASINING
GIBRID TABIATI: SHAKLLANISH MANBALARI, STRUKTUR-SEMANTIK
XUSUSIYATLARI VA FUNKSIONAL TAHLILI 226-232

Rahmatov Laziz, Baxronova Dilrabo
ABYA YALA (LOTIN AMERIKASI) DAVLATLARI NOMLARINING
LINGVOPOLITIK DISKURSI: ETIMOLOGIK VA GEOSIYOSIY TAHLIL 233-241

Quvvatova Shaxlo Choriyevna
XOLID HUSAYNIYNING "MING QUYOSH SHU'LASI" ASARI TAHLILI..... 242-246

Elmuratova Zamira Xodjamuratovna
NAQLLAR VA MAQOLLARNING FOLKLOR JANRIDAGI ROLI..... 247-251

12.00.00 - YURIDIK FANLAR

Shayzakov Shodiyor Ibragimovich
QONUNIY KUCHGA KIRMAGAN SUD HUIJATLARI USTIDAN APELLYATSIYA
TARTIBIDA SHIKOYAT QILISHNING PROTSESSUAL-HUQUQIY ASOSLARI..... 252-261

Umarova Xolisxon Nomoz qizi
O'ZBEKISTONDA RAQOBATGA QARSHI KELISHUVLAR HAQIDA XABAR BERGANLIK
UCHUN JAVOBGARLIKDAN OZOD QILISH VA JARIMALARNI KAMAYTIRISH TIZIMINI
TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI..... 262-269

Аминова Наргиза
ОТ СЕКУЛЯРИЗМА К ПОСТСЕКУЛЯРНОСТИ:
МОДЕЛИ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ РЕЛИГИОЗНОГО И СВЕТСКОГО
В СОВРЕМЕННОМ ОБЩЕСТВЕ 270-277

Amirov Agzamxon Aktamovich
QURILISHDA ULUSHLI ISHTIROK ETISH TUSHUNCHASINING TAHLILI..... 278-283

Mamatmurodov Farrux Farxod o'g'li
SUKUKNING NAZARIY POYDEVORI HAMDA TARIXIY RIVOJLANISH BOSQICHLARI:
ZAMONAVIY KAPITAL BOZORIDAGI O'RNI..... 284-294

Kabilov Sardor Asrolovich
JINOIY JAVOBGARLIKDAN OZOD QILISH TURLARI VA UNING HUQUQIY ASOSLARI 295-300

<i>Nosirov Bekzod O'ktam o'g'li</i> ETIL SPIRTI, ALKOGOL VA TAMAKI MAHSULOTLARINI VOJXONA CHEGARASIDAN NOQONUNIY OLIB O'TISH	301-304
<i>Sabirova Kuvanchay Babamuratovna</i> ГЕНДЕРНОЕ НАСИЛИЕ, УСИЛЕННОЕ ИСКУССТВЕННЫМ ИНТЕЛЛЕКТОМ: ВЫЗОВЫ МЕЖДУНАРОДНОМУ ГУМАНИТАРНОМУ ПРАВУ И ПРОБЕЛЫ В ПРАВОВОМ РЕГУЛИРОВАНИИ	305-310
<i>Urinboyeva Muxlisa Ma'rufovna</i> MEDIATSIYA INSTITUTIDA SUN'IY INTELEKT IMKONIYATLARIDAN FOYDALANISH MASALALARI	311-318
<i>Majidov Islomjon Dilshod o'g'li</i> YAQIN QARINDOSHLAR BILAN BOG'LIQ HOLATLARDA TRANSPORT VOSITALARI HARAKATI YOKI ULARDAN FOYDALANISH XAVFSIZLIGI QOIDALARINI BUZISH JINOYATLARINI KVALIFIKATSIYA QILISHDA INSONPARVARLIK PRINSIPINI QO'LLASH MASALALARI	319-325
<i>Habibullayev Muhammadrajab Obidjon o'g'li</i> HUQUQ VA IMKONIYATLAR MUVOZANATI: O'ZBEKISTONDA GENDER ADOLAT SARI YO'L.....	326-331
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Qurbonova Dilafroz Toshturdiyevna</i> TEMURIY MALIKALAR MA'NAVIY MEROSINING TARIXIY, ILMIY-ADABIY MANBALARDAGI TALQININI TALABA-QIZLARGA O'RGATISH	332-337
<i>Tursunaliyev Shaxzod Sherali o'g'li</i> SUMMATIVE ASSESSMENT AS A CONTEXT FOR DEVELOPING STUDENTS' CRITICAL THINKING COMPETENCE: THE PROBLEM DIMENSION	338-344
<i>Abdullayeva Surayyo Ashrafxonovna</i> AUTISTIK SPEKTR BUZILISHLARIGA EGA BOLALAR TA'LIMI VA TARBIYASINING TARIXIY SHAKLLANISHI HAMDA IJTIMOY ASOSLARI	345-354
<i>G'affarova Dilfuza Shavkat qizi</i> TALABALARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARINING DIDAKTIK IMKONIYATLARI.....	355-360
<i>Turdimuratov Dilmurad Yuldashevich</i> THE IMPACT OF VOLITIONAL QUALITIES OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS ON THE DEVELOPMENT OF BEHAVIORAL RESPONSES ENSURING EFFECTIVE SPORTS PERFORMANCE.....	361-367

Received: 16 March 2026

Accepted: 01 April 2026

Published: 15 April 2026

Article / Original Paper

THEORETICAL FOUNDATIONS OF SUKUK AND THE STAGES OF ITS HISTORICAL DEVELOPMENT: THE ROLE OF SUKUK IN THE MODERN CAPITAL MARKET

Mamatmurodov Farrux Farxod ugli

Tutor of Private law

Tashkent state university of law

Abstract. This annotation examines the theoretical foundations of sukuk, the historical sources of its formation, and its place in the modern capital market. The study treats sukuk as one of the key financial instruments of Islamic finance, possessing a distinct legal and economic nature. Particular attention is paid to the features that differentiate sukuk from conventional bonds, especially their linkage to tangible assets, their reliance on profit-and-risk sharing principles, their compliance with the prohibition of riba (interest), and their conformity with Sharia requirements. In this regard, sukuk is viewed not merely as an alternative method of raising capital, but as an independent investment mechanism that combines elements of property rights, contractual obligations, and corporate relations. The annotation also highlights the historical background of sukuk. It notes that the earliest foundations of sukuk can be traced to classical Islamic commercial and contractual practices, while its modern form emerged much later under the influence of globalization in financial markets, the expansion of Islamic banking, and the growing demand for Sharia-compliant long-term financing instruments. The historical and evolutionary development of sukuk is considered in stages: from early theoretical ideas and limited practical applications to its transformation into a sophisticated capital market instrument used by sovereign issuers, international financial institutions, and private entities. In addition, the study emphasizes the importance of sukuk in the contemporary capital market. It argues that sukuk plays a significant role in mobilizing investment, financing infrastructure and socially significant projects, diversifying sources of capital, and broadening the range of investors. It is further noted that, in the context of the transformation of the global financial system, sukuk has become not only an instrument of Islamic economies but also a recognized component of the international capital market. On this basis, the annotation concludes that a comprehensive study of the theoretical, historical, and institutional dimensions of sukuk is essential for improving national legislation and for facilitating the effective introduction of this instrument into the practice of emerging capital markets.

Keywords: sukuk, Islamic finance, capital market, securities, investment instrument, Sharia-compliant financing, asset-based financing, risk and profit sharing, financial instruments, historical development.

SUKUKNING NAZARIY POYDEVORI HAMDA TARIXIY RIVOJLANISH BOSQICHLARI: ZAMONAVIY KAPITAL BOZORIDAGI O'RNI

Mamatmurodov Farrux Farxod o'g'li

Xususi huquq fakulteti tyutori

Toshkent davlat yuridik universiteti

E-mail: mamatmurodovfirdavs@gmail.com

<http://www.orcid.org/0009-0002-4169-366X>

Annotatsiya. Ushbu annotatsiyada sukukning nazariy poydevori, uning tarixiy shakllanish manbalari hamda zamonaviy kapital bozoridagi o'rni tahlil qilinadi. Tadqiqotda sukuk islom moliyasi tizimining muhim moliyaviy instrumenti sifatida ko'rib chiqilib, uning an'anaviy obligatsiyalardan farqli jihatlari, xususan, real aktivlar bilan bog'liqligi, foyda va riskni taqsimlashga asoslanishi, foiz taqiqi bilan uyg'unligi hamda shariat talablariga mos huquqiy tabiatiga alohida e'tibor qaratiladi. Shuningdek, sukukning dastlabki tarixiy ildizlari klassik islom savdo va muomala amaliyotlari bilan bog'liqligi, keyinchalik esa zamonaviy moliya tizimi ehtiyojlari ta'sirida u mustaqil

investitsion vosita sifatida shakllanganligi yoritiladi. Annotatsiyada sukukning tarixiy-evolyutsion rivojlanish bosqichlari ketma-ketlikda ochib berilib, uning dastlabki nazariy qarashlardan tortib, bugungi kunda xalqaro moliya bozorlarida qo'llanilayotgan murakkab emissiya mexanizmlarigacha bo'lgan taraqqiyot yo'li baholanadi. Bundan tashqari, sukukning zamonaviy kapital bozoridagi iqtisodiy va huquqiy ahamiyati, ayniqsa uzoq muddatli investitsiyalarni jalb qilish, infratuzilmaviy loyihalarni moliyalashtirish, moliyaviy inklyuzivlikni kengaytirish hamda muqobil investitsiya instrumentlari qatorini boyitishdagi roli ochib beriladi. Tadqiqotda sukukning xalqaro moliya tizimida tobora keng qo'llanilayotgani, uning nafaqat islomiy mamlakatlar, balki g'arb davlatlari kapital bozorlarida ham barqaror instrument sifatida namoyon bo'layotgani qayd etiladi. Shu asosda maqolada sukukning nazariy mohiyati, tarixiy taraqqiyoti va amaliy qo'llanilishi o'rtasidagi uzviy bog'liqlik yoritilib, uning zamonaviy kapital bozoridagi o'rni kompleks baholanadi. Mazkur tadqiqot sukukni huquqiy va iqtisodiy nuqtai nazardan chuqurroq anglashga, shuningdek, uni milliy qonunchilik va kapital bozori amaliyotiga joriy etish istiqbollari belgilashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: sukuk, islom moliyasi, kapital bozori, qimmatli qog'ozlar, investitsiya instrumenti, shariatga muvofiq moliyalashtirish, aktivga asoslangan moliyalashtirish, risk va foydani taqsimlash, moliyaviy instrumentlar, tarixiy rivojlanish.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I4Y2026N40>

Kirish. Bugungi investitsiya munosabatlari mamlakat iqtisodiyotining turli sohalarida, og'ir sanoat, yengil sanoat, energetika, qishloq xo'jaligi, moliya-bank sohasi va boshqa tarmoqlarida kapital oqimini rivojlantirish va shu orqali yalpi ichki mahsulotini (YaIM) oshirish har bir davlatning ustuvor vazifalaridan biridir. Sababi, investitsiyalarni jalb qilish va ularni davlatning muhim sektorlariga samarali yo'naltirish, ayniqsa rivojlanayotgan davlatlarda aholining turmush darajasi sifatini yaxshilash, aholining bandiligi oshirish va qashshoqlikka qarshi kurashishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Investitsiya so'zining ma'nosiga to'xtaladigan bo'lsak, investitsiya lotincha so'zdan olingan bo'lib, investire — “kiydirmoq, joylashtirmoq” degan ma'noni anglatadi. Umuman olganda investitsiya iqtisodiy va boshqa faoliyat obyektlariga kiritiladigan moddiy va nomoddiy ne'matlar hamda ularga doir huquqlar hisoblanib, ushbu faoliyat investitsiya faoliyati investitsiyani amalga oshirish bilan bog'liq harakatlari majmuidir. Investitsiya faoliyati tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishning bir ko'rinishidir [1, 6-bet].

Investitsiyaning yana bir ijobiy jihati shundaki, bu davlatning nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy sohalariga ham o'zining ijobiy ta'sirini o'tkazadi. Bugungi kunga kelib, Janubiy Koreya, Xitoy, Janubi-sharqiy Osiyo davlatlari ham asosan investitsiyalarni jalb qilish va ularni sohalarga samarali yo'naltirish orqali texnologik jihatdan rivojlangan davlatlar qatoriga kirdi.

Biroq, 2020-yildagi jahonda yuz bergan COVID-19 pandemiyasi, hozirda kuchayib borayotgan geosiyosiy qarama-qarshiliklar, muhim jahon savdo yo'llarida joylashgan davlatlardagi lokal mojarolar investitsiya oqimlariga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bu kabi jahon investitsiya oqimlariga ko'rsatilayotgan salbiy ta'sirlar rivojlanayotgan davlatlarning iqtisodiy, moliyaviy va ijtimoiy barqarorligiga putur yetkazmoqda.

Bu kabi murakkab jarayonlar qarshisida iqtisodiy jihatdan hali mustahkam poydevorlarga ega bo'lmagan rivojlanayotgan davlatlar o'zining iqtisodiy-moliyaviy holatini yaxshilash maqsadida investitsiya oqimlarini jalb qilishga, investorlar uchun qulay tadbirkorlik muhitini yaratishga harakat qilmoqda.

Bugungi kundagi eng investitsion jozibador mamlakatlardan biri bo'lgan Malayziya misolida oladigan bo'lsak, 1970-yillardan boshlab hukumat mamlakatga investitsiya oqimini oshirish maqsadida investorlar uchun qulay muhit shakllantirdi. Bunda birinchi navbatda investitsiyaviy munosabatlarni tartibga soluvchi, investorlarning huquqlarini himoya qiluvchi, shuningdek, ularga qulay tadbirkorlik imkoniyatini yaratib beruvchi qonunchilik normalari

qabul qilindi, mavjudlari esa yangilandi. Bu esa mamlakatda investorlar uchun ishonchli tadbirkorlik muhitini shakllantirdi. Natijada, Malayziyada iqtisodiy o'sish sur'ati 1990-yillarga kelib, 7-8% ni tashkil qildi. "Macrotrends.net" nomli investitsiyaviy ma'lumotlarni taqdim qilib boruvchi internet tarmog'idagi ma'lumotiga ko'ra Malayziyaga kiritilgan to'g'ridan-to'g'ri investitsiya miqdori 1971-yilda 100 million AQSH dollaridan 2021-yilda 20.25 milliard dollarga oshgan. Hatto, 2020-yilda jahonda yuz bergan COVID-19 pandemiyasi davrida ham to'g'ridan-to'g'ri kiritilgan investitsiya miqdori 4 milliard dollardan oshgan. AQShning iqtisodiy tadqiqot markazi bo'lgan Milken Instituti tomonidan e'lon qilingan "2024-yilgi Global Imkoniyatlar Indeksi (GOI)" ga ko'ra, Malayziya Osiyoning rivojlanayotgan va taraqqiyot yo'lidagi davlatlari orasida eng yaxshi umumiy investitsiya sharoitiga ega mamlakat deb topilgan. Butun dunyo bo'yicha esa Malayziya umumiy reytingda 27-o'rinni egallab, Tailand (37-o'rin) va Xitoy (39-o'rin) dan ko'ra yuqoriroq o'rin egallagan.

Shu jumladan O'zbekiston ham o'zining iqtisodiy barqarorligini yaxshilash maqsadida tadbirkorlar uchun kapital bozorini kengaytirish, chet el tadbirkorlari uchun investitsion jozibadorlikni oshirish borasida muhim qadamlarni allaqachon tashlagan.

O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2024-yil natijalari yakuni sarhisobi bo'yicha o'tkazilgan yig'ilishda mamlakatimizga so'ngi yetti yillikda jami 188 milliard AQSH dollariga yaqin investitsiyalar kiritilganligi aytilib, buning natijasi o'laroq investitsiyalarning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 30 foizdan oshganligi va barqaror iqtisodiy o'sishga sabab bo'layotganligi aytiladi. Bundan tashqari, yig'ilish davomida prezident bugungi jahonda kuzatilayotgan murakkab vaziyatlar va o'zgarishlar oqibatida eksport-logistika zanjirlari qiyinlashayotganligi ta'kidlab, bunday holatda ichki imkoniyatlarni to'liq safarbar qilib, iqtisodiy taraqqiyot sur'atlarini oshirish zarurligi aytib o'tdi.

O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risi" dagi PF-158-sonli Farmonining 2030-yilgacha erishiladigan maqsadlarning samaradorlik ko'rsatkichlarining 45-bandida 2030-yilga qadar iqtisodiyot hajmini 2 barobar oshirish va "daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar" qatoriga kirish belgilab o'tilgan bo'lib, ushbu ko'rsatkichga erishish uchun iqtisodiyotda transformatsiya va institutsional islohotlarni izchil davom ettirish, mamlakatda qulay investitsion va ishbilarmonlik muhitini ta'minlash hamda muvozanatlashgan pul-kredit siyosatini amalga oshirish, shuningdek, asosiy kapitalga kiritiladigan investitsiyalar hajmining yillik o'rtacha 7 foiz atrofida o'sishini ta'minlash ustuvor maqsadlardan biri qilib qo'yilgan.

Bundan tashqari ushbu ko'rsatkichning 49-bandida O'zbekistonning investitsiyaviy jozibadorligini yanada oshirish va qimmatli qog'ozlar bozorini jadal rivojlantirish uchun mamlakatimizda 250 milliard dollarlik investitsiyalarni o'zlashtirish, jumladan 110 milliard dollar xorijiy investitsiyalar va 30 milliard dollar davlat-xususiy sheriklik doirasidagi investitsiyalarni jalb qilish, erkin muomaladagi qimmatli qog'ozlar savdolari hajmini 8 milliard dollarga yetkazish, umumiy qiymati 150 milliard dollarlik 500 dan ziyod strategik ahamiyatiga ega bo'lgan texnologik va infratuzilmaviy loyihalarni amalga oshirish, Pay va venchur jamg'armalar faoliyatini yo'lga qo'yish orqali portfel investitsiyalar hajmini 2 barobarga oshirish asosiy vazifalar sifatida belgilangan.

Mamlakatimizda aholi mablag'larini mobilizatsiya qilish, ya'ni aholida bo'sh turgan mablag'larni ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va boshqa turli xil foydali loyihalarga yo'naltirish bo'yicha katta imkoniyatlar yaratilmoqda. Bunga misol tariqasida O'zbekiston

Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartishlar kiritish to‘g‘risida” O‘RQ-683-sonli Qonuniga asosan Mas‘uliyati cheklangan jamiyatlar ham obligatsiyalar chiqarish va joylashtirish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Dastlab, O‘zbekistonda faqat aksiyadorlik jamiyatlari va tijorat banklarigina korporativ obligatsiya chiqarish huquqiga ega bo‘lgan. Hozirda, O‘zbekistonda aholi aksiyadorlik jamiyatlari va mas‘uliyati cheklangan jamiyatlar tomonidan chiqarilgan aksiya va obligatsiyalarni olish orqali o‘z mablag‘larini mobilizatsiya qilishi mumkin.

Qimmatli qog‘ozlar markaziy depozitariyining 2024-yil 1-choragi davomidagi faoliyati natijalari yuzasidan chiqarilgan hisobotiga ko‘ra 2024-yilning 9 oyi davomidagi faoliyat natijalari to‘g‘risidagi hisobotga ko‘ra, 2024-yilning 1-oktyabrdagi holatiga ko‘ra, Markaziy depozitariyda 680 ta aksiyadorlik jamiyatining 205 822,36 mlrd.so‘m umumiy nominal qiymatga ega 23 117,53 mlrd. dona aksiyasi chiqarilgan.

2024-yilning 9 oyi davomida aksiya chiqarilishlari hajmi 16,110,24 mlrd. so‘mga, aksiyalarning soni esa 5,170,13 mlrd. donaga ko‘paydi.

Markaziy depozitariyda, shuningdek, 39 emitent tomonidan chiqarilgan 1 405,7 mlrd.so‘m umumiy miqdorga ega 1,26 mln.dona korporativ obligatsiyalar bo‘lib, umumiy 32 ta MChJ tomonidan 801,5 mlrd.so‘m ga ega 695,2 ming dona korporativ obligatsiyalar chiqarilgan.

Bundan ko‘rinib turibdiki, aksiyadorlik jamiyatlari va mas‘uliyati cheklangan jamiyatlar tomonidan aholining mablag‘larini mobilizatsiya qilish orqali kapital bozor muhitiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. Biroq, bularni chet el davlatlaridan keladigan investitsiya oqimlarini mamlakatimizga kelishini yanada oshirish, mahalliy investitsiya muhitini yaxshilash uchun yetarli deb bo‘lmaydi. Sababi, aholimizning aksar qismi moliyaviy savodxonligining yuqori emasligi, mablag‘ jamg‘arishning an‘anaviy usullaridan keng foydalanishi, shuningdek, qadriyatlarini tufayli an‘anaviy qimmatli qog‘ozlarni sotib olishni xohlamaydi.

O‘zbekistonda o‘tkazilgan Jahon banki/Xalqaro moliya korporatsiyasi (IFC) tomonidan 2018-yilda o‘tkazilgan so‘rov natijalariga ko‘ra, so‘rovda qatnashgan firmalarning 64 foizi bank moliyalashtiruvidan foydalanganini, 8 foizi esa oila a‘zolari va do‘stlarining yordamini olganini bildirgan. Shunga qaramay, O‘zbekistondagi kichik va o‘rta biznes subyektlarining katta qismi o‘z o‘shini ichki manbalar hisobidan moliyalashtiradi — 64 foizi o‘zini-o‘zi moliyalashtirishini qayd etgan [2, 6-bet].

Shuningdek, biz 2020 yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Taraqqiyot Dasturi loyihasi doirasida aholi, biznes vakillari va tijorat banklari o‘rtasida o‘tkazgan so‘rovnoma davomida 27 ta tijorat banki, 2235 nafar tadbirkor hamda 4938 jismoniy shaxs ishtirok etgan. Ushbu so‘rovnoma natijalariga ko‘ra biznes vakillarining 38%, hamda jismoniy shaxslarning 55% diniy qarashlari sababli an‘anaviy kreditlardan foydalanmasliklarini aytishgan.

Biznes vakillarining 61% i va jismoniy shaxslarning 75% i agar islom bank-moliya muassasalarida O‘zbekistonda faoliyat boshlasa, o‘z moliyaviy amaliyotlarini islom moliya muassasalarida olib borish istagini bildirgan. Biznes vakillarining 47% i va jismoniy shaxslarning 55% i islom banklari xizmat haqi yuqori bo‘lsa ham ular bilan ishlayverishini aytishgan, chunki bu ularning diniy dunyoqarashlari bilan bog‘liq ekanligini aytib o‘tgan.

O‘zbekiston aholisining 90% idan ko‘proq qismi musulmon ekanligini hisobga olsak, aholining ko‘pchiligi islomda taqiqlangan faoliyat turi bilan shug‘ullanadigan aksiyadorlik

jamiyatlarining aksiyalarini yoki foizga asoslangan obligatsiyalarni sotib olmasligi, an'anaviy banklarning foizga asoslangan omonat va kredit xizmatlaridan foydalanmasligi tabiiydir.

Bundan ko'rinib turibdiki, chet el davlatlari, xalqaro tashkilotlardan keladigan investitsiyalarni yanada jalb qilish, mahalliy investitsiya muhitini yaxshilash va aholining qo'lidagi mablag'larni ko'proq mobilizatsiya qilish uchun an'anaviy moliyaviy vositalar va xizmatlarga muqobil bo'la oladigan, eng muhimi mahalliy aholining e'tiqodi va dunyoqarashiga mos keladigan muqobil moliyaviy vositalarni joriy qilish zarur.

Bugungi kunda aholisining ko'pchilik qismi musulmon bo'lgan davlatlarda aholining e'tiqodi, talab va takliflaridan kelib chiqib, an'anaviy moliyaviy xizmatlarga muqobil bo'la oladigan islom moliyasi xizmatlarini joriy qilish tobora rivojlanib bormoqda. Islom moliyasi xizmatlari an'anaviy moliyaviy xizmat turlariga mos ravishda o'zining muqobil moliyaviy xizmat turlarini taklif qiladi. Xuddi shundek, bugungi kunda aksiya va obligatsiyalar, umuman an'anaviy moliyaviy vositalarga muqobil sifatida islom moliyasi sukuk moliyaviy vositasini taklif qilmoqda.

Sukuk real aktivlarga asoslangan, shariatga muvofiq investitsion vosita bo'lib, u moliyalashtirilgan loyihadan yoki mulkdan keladigan daromadni aks ettiradi hamda investorlar o'rtasida egalik, foyda va riskni taqsimlashni o'z ichiga oladigan qimmatli qog'ozlarning shariat talablaridan kelib chiqadigan bir turidir.

Islom moliya institutlari uchun buxgalteriya hisobi va audit tashkilotiga (AAOIFI) ko'ra sukukka quyidagicha ta'rif beradi:

Sukuk — bu teng qiymatdagi sertifikatlar bo'lib, ular moddiy aktivlar, ulardan foydalanish huquqi (usufruct) va xizmatlar yoki muayyan loyiha yoxud maxsus investitsiya faoliyati aktivlariga nisbatan bo'linmagan (ulushli) egalikni ifodalaydi [3, 468-bet].

Sukuk so'zi "Sakk" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, huquqiy instrument, dalolatnoma, chek degan lug'aviy ma'nolarni anglatadi. Bundan tashqari tarixda qog'oz hujjatlarga muhr bosish ma'nosida ham keng qo'llanilgan. Professor De Vroedening ta'kidlanishicha, AQShda "check" so'zi Britaniya ingliz tilidagi "cheque" shakli bilan bog'liq bo'lib, zamonaviy G'arb tilidagi "cheque" so'zi arab tilidagi "sakk" so'zidan kelib chiqqan [4, 710-bet]. Marmara universiteti professori Ismail Eris ham De Vroedening ushbu fikrini qo'llab quvvatlab, Joseph Schacht kabi sharqshunos olimlarning bir necha tadqiqotlarini o'rganishi natijasida "cheque" (chek) so'zi g'arbiy tillarda bugungi kunda ishlatilayotgan shaklda musulmon dunyosidan olingan bo'lib, uning etimologik ildizi arab tilidagi "şakk" so'ziga borib taqaladi." degan fikrga kelgan [5, 111-bet].

Yuqorida keltirilgan De Vroede va Ismail Erisning ilmiy qarashlari shuni ko'rsatadiki, "sukuk" atamasining etimologik ildizi bo'lgan "şakk" (sakk) so'zi nafaqat lug'aviy, balki tarixiy-huquqiy mazmunga ham ega bo'lgan. O'rta asrlarda musulmon savdo amaliyotida "şakk" yozma majburiyat hujjati, to'lov topshirig'i yoki muayyan moliyaviy huquqni tasdiqlovchi dalolatnoma sifatida qo'llanilgan. Bu esa islom sivilizatsiyasida moliyaviy-huquqiy institutlar rivojlanganligini ko'rsatadi.

G'arb tilidagi "cheque" (chek) atamasining arab tilidagi "şakk" so'zidan kelib chiqqani haqidagi ilmiy qarashlar shuni anglatadiki, zamonaviy moliyaviy hujjatlar va to'lov vositalarining ayrim shakllari musulmon savdo-huquqiy tajribasidan ta'sirlangan. Bu jarayon, ayniqsa, O'rta asrlarda islom dunyosi va Yevropa o'rtasidagi savdo aloqalari orqali yuz bergan. Natijada, moliyaviy munosabatlarda qo'llaniladigan yozma to'lov hujjatlari G'arb huquqiy

tizimlariga moslashgan holda shakllangan. Shu nuqtai nazardan, “sukuk” atamasining tarixiy ildizi oddiy terminologik o‘xshashlik emas, balki moliyaviy-huquqiy institutlarning evolyutsion rivojlanishini aks ettiradi. Dastlab yozma to‘lov hujjati ma‘nosini anglatgan “shakk” so‘zi vaqt o‘tishi bilan investitsiya sertifikatini mazmunini olgan “sukuk” tushunchasiga transformatsiya qilingan. Bu esa islom moliya tizimi tarixan real savdo va mulkiy munosabatlarga asoslanganligini ko‘rsatadi. Demak, bugungi kunda keng qo‘llanilayotgan “cheque” (chek) so‘zi bilan “sukuk” atamasining etimologik bog‘liqligi shuni tasdiqlaydiki, islom huquqiy-amaliyoti zamonaviy moliyaviy instrumentlarning shakllanishiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatgan. Shu jihatdan, sukuk instituti yangi ixtiro emas, balki tarixiy savdo-huquqiy tajribaning zamonaviy kapital bozoriga moslashtirilgan shakli sifatida talqin qilinishi mumkin.

Umuman olganda sukuk Islom qonunchiligi yoki shariatga muvofiq ravishda olingan huquqlar, majburiyatlar yoki daromadlarni transfer qilish shartnomasini o‘zida ifoda etuvchi hujjat sifatida ta‘riflanishi mumkin. Karabuk universiteti professori Ijaz Ahmadning ta‘kidlashicha sukuk, ya‘ni “sakk” so‘zining ko‘plik shakli, o‘rta asrlardagi Islom davrida savdo va boshqa biznes faoliyatidan kelib chiqadigan moliyaviy majburiyat va burchlarni o‘tkazish vositasi sifatida keng qo‘llanilgan [6, 108-bet].

Sukuk so‘zidan arab lug‘atida foydalanishning ikki xil ma‘nosi mavjud bo‘lib, birinchi ma‘nosi urish, hujum qilish, tegish harakat fe‘llarini bildirib [7, 457-bet], ikkita narsani bir-biriga qattiq va kuch bilan tegishini anglatadi, misol uchun eshikni yopish, shapaloq berish, nayza otish harakat fe‘lini anglatadi, ikkinchi ma‘nosi qaydlar yoziladigan kitob, yozma hujjat, shuningdek, qarz, mol-mulk, iqtisodiy tranzaksiyalar va moliyaviy huquqlarni o‘zida aks ettiradigan qaydnoma degan ma‘nolarni berib, hozirgi zamonda qo‘llaniladigan sukuk atamasi arab tilida yuqoridagi ikkinchi ma‘nodan kelib chiqqan.

Ba‘zi tadqiqotchilar islomning dastlabki davrlaridayoq sukukdan moliyaviy majburiyatlarni o‘zida ifoda etuvchi moliyaviy vosita sifatida foydalanganligini ta‘kidlaydi [8, 72-bet]. Sharqshunos olim A.L.Udovitchning izlanishlariga ko‘ra ushbu davrda ham qarz munosabatlarining rasmiy yozma qog‘oz shakllari mavjud bo‘lgan. Olimning keltirishicha, bunday yozma hujjatlar “Geniza” hujjatlari deb yuritilgan [9, 309-311-betlar]. XII asrga taalluqli bo‘lgan Qohira geniza hujjatlarida ham hozirgi zamonaviy chek shakliga juda o‘xshash bo‘lgan moliyaviy hujjatlar mavjud bo‘lgan va bu hujjatlarda to‘lanishi kerak bo‘lgan summa, uning mazmuni, sana va hujjatni bergan shaxsning ismi ko‘rsatilgan [10]. Yana bir sharqshunos olim Paul Valley O‘rta asrlar davrida sakkdan tovarlar yetkazib berilganda ular uchun to‘lov qilish majburiyatini bildiruvchi yozma va‘da sifatida xavfli hududlar orqali naqd pul olib o‘tishga hojat qoldirmaslik uchun ishlatilganligini ta‘kidlaydi [11, 11-bet]. Sukuklarning o‘sha davrdagi tabiatidan kelib chiqsak ular bir necha davlatlar o‘rtasidagi savdo-sotiq munosabatlarida muomalada bo‘lgan. Bu esa ushbu moliyaviy instrumentning qo‘shni hududlarga tarqalishiga olib kelgan.

Bundan shuni xulosa qilishimiz mumkinki, sukuklar dastlab o‘zida investitsiyaviy munosabatlarni aks ettirmagan, balki qarz munosabatlariga asoslangan huquq va majburiyatlarni belgilovchi oddiy yozma moliyaviy hujjat bo‘lgan.

Bu borada tadqiqotchi A.Jumagulov ham o‘zning maqolasida fikr bildirgan bo‘lib, A.Jumagulovning fikriga ko‘ra ham sukuk dastlab hozirgi zamonaviy shaklidan ancha yiroq bo‘lib, faqatgina to‘lov usuli sifatida va insonlarning huquqlarini qayd etish uchun ishlatilgan [12, 35-bet].

Sukukning bu shakldagi muomalasi XIV asrlarga qadar yaqin sharq musulmon mamlakatlarida amalda bo'lgan. Umuman olganda sukukning tadrijiy rivojlanish tarixini olimlar turli xil davrlarga bo'lib o'rganadilar. Olimlar sukukning dastlabki paydo bo'lish davri, sabablari va maqsadlari haqida yetarli tarixiy ma'lumotlarga ega. Biroq, sukukning hozirgi zamonaviy ko'rinishidagi shaklida foydalanish davrlari aynan qaysi yillarga borib taqalishida yakdil va ishonchli ma'lumotlar yo'q. Professor Mohamed Ariff, Meysam Safari va Shamsher Mohamادلarning birgalikda olib borgan tadqiqotlariga ko'ra, bugungi sukukning ilk zamonaviy shaklidan foydalanish 1285-yillarga borib taqaladi. Ularning ta'kidlashlaricha, Usmonli imperiyasi salib yurishlari vayron bo'lganidan keyin imperiya infratuzilmasini rekonstruksiya qilish maqsadida xazina aktivlarining bir qismini qarz beruvchi jamoatchilik mulkiga ajratish orqali katta miqdorda mablag' olgan va bu zamonaviy sukuk munosabatlarining ilk unsurlarini o'zida mujassam etgan.

Islom moliyasi bo'yicha yetuk mutaxassislardan biri bo'lmish professor Murat Sizakchanning fikriga ko'ra, zamonaviy sukukning ildizlari XV-XVIII asrlarga taqalib, zamonaviy sukukning belgilarini uchta asosiy qismlarga bo'ladi. Bular daromadni yaratish, sekyuritarizatsiya, maxsus maqsadli tashkilot (special purpose vehicle – SPV) tashkil qilish. Sizakcha zamonaviy sukukning paydo bo'lishini aynan sukuk munosabatlarida ushbu 3 ta tarkib mavjud bo'lgan davrlarga bog'lab boshlaydi. Uning ta'kidlashicha, sukukning daromad manbaini shakllantirish tarkibiy qismining paydo bo'lishini XV asrdagi Usmonli turklar imperiyasida keng qo'llanilgan “naqd vaqf” larga bog'laydi. Unda vaqf sifatida ajratilgan kapital xayriya maqsadlarida mablag' yig'ish uchun investitsiya qilinadi, bu esa vaqf (xayriya mulki) tashkil etilishining asosiy sababidir. Naqd vaqfga ko'ra uy egasi uyini vaqf tashkilotiga sotadi va uyni qayta sotib olguniga qadar uyda ijara asosida istiqomat qiladi. Bu vaqf tashkiloti va uy egasi o'rtasidagi “oldi-sotdi va ijara” munosabatlarini yuzaga keltiradi. Sizakchanning fikricha, zamonaviy ijara sukukining mohiyati aynan naqd vaqfda yotadi. Unda vaqf sifatida ajratilgan kapital xayriya maqsadlarida mablag' yig'ish uchun investitsiya qilinadi, bu esa vaqf (xayriya mulki) tashkil etilishining asosiy sababidir.

Sizakchanning tadqiqotlariga ko'ra, sukukning sekyutarizatsiya tarkibiy qismining ilk paydo bo'lish davrlarini 1775-yillardagi Usmonli imperiyasida “ishom” tizimining joriy qilinishi bilan bog'laydi.

Ishom — bu mavjud bo'lgan daromad manbaiga asoslangan bo'lib, bu tizimda yangi daromad yaratish (bugungi sukuklardagi kabi) zarurat bo'lmagan. Bu tizim orqali davlat o'z daromad oqimini oldindan sotish yo'li bilan mablag' yig'gan.

Agar bir Sizakchanning taqdiqotlariga suyanadigan bo'lsak, XVIII asrlarning so'ngida Usmonli turklar imperiyasida ishom tizimining joriy qilinishi zamonaviy sukukning yana bir tarkibiy qismi paydo bo'lishiga sabab bo'lganligini tushunib yetamiz.

Sukukning uchinchi tarkibiy qismi bo'lmish maxsus maqsadli tashkilot SPVning kelib chiqishini Sizakcha vaqf institutiga bog'liqligini ta'kidlab o'tadi. Bunga asosiy sabab sifatida SPV va vaqfda ham benefitsiarlarga (foyda oluvchilarga) xizmat qiladigan aktivining ishonchli fond sifatida tashkil etilishini o'z ichiga olishini aytadi.

Sizakchanning bu fikrini Shabana Hasan, Khairunnisa Musari, Abdulkarim kabi olimlar ham tasdiqlagan. Ularning qarashlariga ko'ra, ushbu ikki instrumentni bir-biriga muvofiqlashtirish imkoni mavjud bo'lib, vaqf aktivlarini rivojlantirish uchun sukuk orqali vaqfni sekyutarizatsiya qilish mumkin [13, 46-bet].

Sizakcha sukukning SPV tarkibi va vaqf o'rtasidagi bu darkadagi muvofiqlik ajablanarli emasligi, bunga sabab zamonaviy SPVlar ommaviy huquq trustlari sifatida tashkil etilishini aytib, ingliz trustlari ham salib yurishlari davrida yaqin sharqdagi musulmon davlatlaridan ko'chirilganligi ta'kidlaydi.

Demak, yuqoridagilardan xulosa qilsak SPVlarning ilk paydo bo'lish davrlarini XII-XIII asrlarga bog'lasak bo'ladi. Shu sababli ham Sizakcha sukukning evalyutsion rivojlanish davrini ikkiga bo'ladi. Biroq A.Jumagulov sukukning tadrijiy-evalyutsion rivojlanishini uch davrga bo'ladi. Uning fikricha bu davrlar ilk, o'rta va hozirgi davrdir [14, 34-bet]. Sukukning tadrijiy-evalyutsion rivojlanishini davrlarga bo'lishda A.Jumagulovning fikrlariga qo'shilaman. Sababi, yuqorida olib brogan muhokamalarimizda oydinlashyaptiki, sukuk dastlabki davrda o'zida investitsiyaviy munosabatlarni aks ettirmagan va oddiy naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirishdagi moliyaviy vosita bo'lgan. Bu davr asosan VI-XIII asrlarni o'z ichiga olib, Arab xalifaligi davrlarida rivojlangan. O'rta davr esa XIII-XIX asrlarni o'z ichiga olib, aynan bu davrda sukuk o'zida ilk investitsiyaviy munosabatlarni aks ettira boshlagan. Bu davr Usmonli turk imperiyasi hukmronlik qilgan davrlarga mos keladi va Usmonli turk imperiyasi davrida yo'lga qo'yilgan moliyaviy tizimlar sukukning rivojlanishiga katta hissa qo'shgan.

Sukukning rivojlanish davridagi uchinchi bosqich XX asrdan hozirgi davrgacha bo'lgan muddatni o'z ichiga oladi. Tadqiqotchi A.Jumagulovning fikriga ko'ra sukukning bu davri quyidagi belgilari bilan yuqoridagi ikki davrdan farqlanadi: Bu davrda sukuk bozorini shakllantirish va uni huquqiy jihatdan tartibga solish jarayoni boshlanib, davlatlar tomonidan sukuk emissiyasini yo'lga qo'yish maqsadida maxsus qonunlar va normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilina boshlandi. Shu orqali sukukni chiqarish, ro'yxatdan o'tkazish, muomalaga kiritish hamda nazorat qilish tartiblari bosqichma-bosqich huquqiy maydonga kiritildi.

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab AQSHda qimmatli qog'ozlar bozori taraqqiy etib, ular uchun huquqiy baza shakllanib, olimlar qimmatli qog'ozlar bo'yicha chuqur ilmiy tadqiqotlar olib borganidan so'ng islom olamida zamonaviy sukukning nazariy asoslarini keng miqyosda va oddiy usulda yaxshiroq tavsiflashning imkoni paydo bo'ldi [15, 294-bet].

Sukuk faoliyatini tartibga solish, tartib va qoidalar ishlab chiqish, sukuk faoliyati uchun barchaga umumiy bo'lgan yagona standartlar ishlab chiqishda Xalqaro islomiy moliya tashkilotlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Xalqaro islomiy moliya tashkilotlarining tashkil etilishi tarixi 1970-yillarga borib taqaladi. 1970-yillardan boshlab Yaqin Sharq musulmon davlatlari iqtisodida sezilarli o'sish boshlandi. Buning zamirida 1975-yili 22 davlat ishtirokida Islom taraqqiyot banki tashkil etildi. Islom taraqqiyot banki islom moliyasi xizmatlarini to'g'ridan-to'g'ri tartibga solmasa-da bu qoidalarni va umumiy standartlarni ishlab chiquvchi institutlarning tashkil etilishida katta ahamiyat kasb etgan.

Ushbu institutlardan biri bu 1991-yili tashkil etilgan Islomiy moliyaviy institutlar uchun buxgalteriya va audit (AAOIFI) tashkilotidir. Ushbu tashkilot islomiy moliya sohasidagi xalqaro standartlar ishlab chiquvchi tashkilot bo'lib, uning asosiy vazifalari shariat standartlarini ishlab chiqish, buxgalteriya va audit standartlari, mutaxassislar tayyorlash va konsultatsiyadan iboratdir. AAOIFI xalqaro tashkilotlar ichida birinchi bo'lib sukuk qimmatli qog'ozlari uchun umumiy standartlar ishlab chiqqan. AAOIFI 2003-yili investitsiya sukuklari to'g'risida 17-sonli shariat standartlarini qabul qilib, birinchi marta sukukka nisbatan aniq ishlab chiqilgan ta'rif berilgan. Ushbu standart sukukning turlari, egalik qilish, foyda olish, emissiya masalalari

bo'yicha shariatga asoslangan tartib-qoidalarni o'z ichiga olib, sukuk faoliyatini yo'lga qo'yayotgan davlatlar uchun aniq standartlarni taqdim etdi.

Sukuk faoliyatini tartibga soladigan xalqaro tashkilotlardan yana biri Islomiy moliyaviy xizmatlar kengashi (IFSB) bo'lib, ushbu tashkilot 2002-yili Islom taraqqiyot banki tashabbusi bilan tashkil etilgan. IFSB islom moliyasi institutlari uchun standartlar ishlab chiqadi. IFSB standartlari asosan islomiy moliyaviy institutlar uchun shaffoflik, oshkoralik, ehtiyotkorlikka asoslangan tartibga solish va nazorat qilish tizimlarini rivojlantirishga qaratilgan. Sukuk faoliyatini tartibga solish bo'yicha IFSB standartlari sukuk egalari uchun xavflarni (kredit, bozor, likvidlik riski) qanday aniqlash va boshqarish bo'yicha ko'rsatmalar beradi. IFSB 2017-yilda 19-sonli "Sukuk bo'yicha oshkoralik talablari" nomli alohida standartlar ham ishlab chiqqan. Bu standartlar sukuk investorlariga nisbatan axborot berish talablari, shariatga muvofiqlikning qanday talablarga javob berishi kerakligi, sukukni kapital aktivi sifatida baholash mezonlari bo'yicha tartib-qoidalarni belgilab beradi.

Xalqaro islom moliyaviy bozori (IIFM) 2002-yili islomiy moliyaviy bozorda xalqaro (chegara orti) bitimlar uchun yagona va shariatga muvofiq hujjat shakllarini, mahsulot shablonlarini ishlab chiqish maqsadida tashkil etilgan. IIFM islomiy moliyaviy vositalar uchun yagona hujjat shakllarini ishlab chiqish orqali islomiy moliyaviy bozorlarda tuziladigan xalqaro bitimlardagi huquqiy noaniqliklarni oldini oladi. IIFM sukuk faoliyatini tartibga solishdagi roli sukuk bo'yicha yo'riqnomalar, tahlillar va bozordagi amaliy tadqiqotlarni chop etish, sukuk tuzilmalarini standartlashtirish orqali ularning shaffofligini va ishonchligini oshirish, moliyaviy institutlar va nazorat organlari uchun sukuk bo'yicha texnik yordam va o'quv dasturlari ishlab chiqishdan iborat bo'lib, bevosita tartibga soluvchi organ emas. Biroq, tartibga solish jarayoni uchun yagona hujjat shakllari va yuridik asoslar yaratish orqali moliyaviy institutlar va nazorat organlariga ko'mak beradi.

Yuqorida IIFM, AAOIFI va IFSB xalqaro tashkilotlarning tashkil topishining sabab, maqsad, va vazifalarini tahlil qilar ekanmiz ularning bevosita nazorat qiluvchi yoki tartibga soluvchi organ emas, balki nazorat qiluvchi va tartibga soluvchi moliyaviy institutlarga bu faoliyat doirasida umumiy standartlar ishlab chiqish orqali ko'mak beruvchi, muvofiqlashtiruvchi, tushuntirishlar beruvchi tashkilotlardir.

Yuqoridagi xalqaro tashkilotlar tashkil etilib, sukuk faoliyati bo'yicha standartlar, qoidalar va tavsiyalar ishlab chiqish boshlanganidan so'ng ko'plab musulmon davrlarida sukuk faoliyatini tashkil etish, nazorat qilish, ular uchun normativ hujjatlar ishlab chiqish yanada osonlashdi.

Dastlab sukukdan foydalanish Iordaniyada amalga oshirildi. Iordaniyada Avfaq, islom ishlari va muqaddas joylar vazirligida ko'lami kengroq loyihalarni moliyalashtirish uchun yetarli darajada mablag' yo'qligi tufayli vaqf mulklarini qayta modernizatsiya qilish, shuningdek, Islomiy moliyalashtirish instrumentlarining mavjud emasligi sababli sukukdan foydalanish zaruratini paydo qildi. Iordaniyada 1981-yilda "Muqarada obligatsiyalari to'g'risida"gi Qonun qabul qilingan. Bu islomiy qimmatli qog'ozlar tarixidagi dastlabki va muhim qadamlardan biri bo'ldi. Ushbu qonunga ko'ra, muqodara obligatsiyalariga ega bo'lgan investor ushbu loyihadan keladigan foydaga ulushdor bo'lgan. Bu esa shariat tamoyillaridan biri bo'lgan foyda va zararni taqsimlash talablariga qisman mos keladi. Biroq obligatsiya muddati tugagandan keyin Iordaniya hukumati uning nominal qiymatini to'liq to'lash kafolatini o'z zimmasiga olganligi sababli islomiy moliya mutaxassislari tomonidan ushbu obligatsiyalar

shariat talablariga to'liq mos kelmasligi to'g'risidagi fikrlarni yuzaga chiqargan. Shu sababli, shariat talablariga to'liq javob beruvchi yangi qonunga ehtiyoj sezildi. 2012-yilda esa "30-sonli Islomiy moliya sukuki" Qonuni qabul qilindi. Bu qonun shariat talablariga to'liq mos kelib, sukuk faoliyatini shariatga muvofiqligi yuzasidan nazorat qiluvchi organlarni tashkil etdi.

2000-yillarga kelib, Malayziyada ham sukuk faoliyatini joriy qilish va tartibga solish bo'yicha muhim qadamlar tashlana boshlandi. Jumaldan, 2006-yil Malayziyada Qimmatli Qog'ozlar Komissiyasi (Securities Commission, SC) tomonidan sukuk faoliyati bo'yicha qo'llanmalar chiqarila boshlandi. Ushbu qo'llanmalar sukuk qimmatli qog'ozlarini emissiya qilish va tartibga solish bo'yicha tartib-qoidalarni o'z ichiga oladi. Ushbu qo'llanmalar chiqarilishi . Malayziyada sukuk faoliyatini tartibga soluvchi birinchi normalar to'plami bo'ldi. Ammo, buning o'zi sukuk faoliyati tartibga solish bo'yicha yetarli imkoniyatlarni taqdim qilmadi. 2013-yilda "Islomiy moliyaviy xizmatlar to'g'risida"gi Qonun (Islamic Financial Services Act, IFSA) qabul qilindi. Ushbu qonunning qabul qilinishidan maqsad sukuk faoliyatini nazorat qilish va investorlarning huquqlarini himoya qilishdan iborat edi.

Sukuk faoliyatini joriy qilish va tartibga solish bo'yicha fors ko'rfazi davlatlari ham ko'plab muhim qadamlarni tashladi. Jumladan, Saudiya Arabistoni –yilda "Kapital bozori to'g'risida"gi Qonunni qabul qildi. Ushbu qonun Malayziyadagi "Islomiy moliyaviy xizmatlar to'g'risida"gi Qonun kabi mamlakatda sukuk qimmatli qog'ozlarini emissiya qilish, ularning shariat talablari doirasida amalga oshirish ustidan nazorat qilish va investorlarning huquqlarini himoya qilishga qaratilgan edi.

Qatarida 2008-yilda yuqoridagi qonunlar kabi sukuk faoliyatini tartibga soluvchi 13-sonli "Kapital bozori to'g'risida"gi Qonun, Birlashgan Arab Amirligida 2015-yilda "Tijorat kompaniyalari to'g'risida" gi 2-sonli Federal farmon qabul qilindi. Ushbu qonunlarning vazifasi ham yuqorida keltirib o'tilgan qonunlardan katta farq qilmaydi.

Xulosa. Bugungi globallashtirish, geosiyosiy beqarorlik va investitsiya oqimlaridagi tebranishlar sharoitida davlatlarning barqaror iqtisodiy o'sishini ta'minlash, avvalo, kapitalni samarali jalb qilish va uni ustuvor tarmoqlarga yo'naltirish bilan chambarchas bog'liqdir. O'zbekiston ham so'nggi yillarda investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish, kapital bozorini kengaytirish va qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirish borasida sezilarli islohotlarni amalga oshirmoqda. Biroq amaldagi an'anaviy moliyaviy vositalar va xizmatlar mavjud ehtiyojlarni to'liq qoplay olmayotgani, ayniqsa aholining muayyan qismi diniy e'tiqodi, moliyaviy odatlari va investitsion xulq-atvori sababli foizga asoslangan instrumentlarga ehtiyotkorona yondashayotgani muqobil moliyaviy vositalarni joriy etish zaruratini kuchaytiradi. Shu ma'noda, sukuk nafaqat islom moliyasining mahsuli, balki real aktivlarga tayanuvchi, foyda va riskni taqsimlashga asoslangan, investitsiya muhitini diversifikatsiya qiluvchi zamonaviy kapital bozori instrumenti sifatida alohida ahamiyatga ega.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, sukukning tarixiy ildizi arab tilidagi "sakk" tushunchasiga borib taqalib, u dastlab oddiy yozma moliyaviy hujjat va to'lov vositasi sifatida shakllangan bo'lsa-da, keyinchalik bosqichma-bosqich investitsiyaviy mohiyat kasb etib, bugungi zamonaviy sekyuritizatsiya, SPV va daromad keltiruvchi aktivlar bilan bog'liq murakkab huquqiy-moliyaviy instrumentga aylangan. Ayniqsa, AAOFI, IFSB va IIFM kabi xalqaro institutlar tomonidan umumiy standartlarning ishlab chiqilishi sukuk bozorining institutsional shakllanishiga, investorlar ishonchini mustahkamlashga va milliy qonunchiliklarni uyg'unlashtirishga xizmat qildi. Iordaniya, Malayziya va Fors ko'rfazi davlatlari tajribasi shuni

tasdiqlaydiki, sukukni huquqiy jihatdan aniq tartibga solish, shariat nazorati mexanizmlarini belgilash va investor huquqlarini kafolatlash ushbu instrumentni samarali joriy etishning asosiy shartidir. Demak, O'zbekiston uchun sukukni joriy etish investitsiya manbalarini kengaytirish, aholining bo'sh mablag'larini safarbar etish va kapital bozorini yangi bosqichga olib chiqishning istiqbolli huquqiy-iqtisodiy yo'nalishidir.

Adabiyotlar/Literatya/References:

1. Investitsiya huquqi. Toshkent 2009, 6-bet;
2. Tadjibaeva D. Small and Medium-Sized Enterprise Finance in Uzbekistan: Challenges and Opportunities // ADBI Working Paper. — Tokyo: Asian Development Bank Institute, 2019. — № 997. — B. 6.
3. Investment Sukuk. — Manama (Bahrayn): Accounting and Auditing Organization for Islamic Financial Institutions, 2017. — B. 468.
4. Ahmed E.R., Islam M.A., Hashim F. Sukuk – History and Development // Journal of Business and Management. — 2013. — Vol. 6, No. 5. — B. 710.
5. Eris I. Historical Origins of Sukuk as a Popular Instrument in Modern Islamic Finance // Journal of Islamic Economics, Banking and Finance. — 2013. — Vol. 9, No. 1. — B. 111.
6. Eris I. Historical Origins of Sukuk as a Popular Instrument in Modern Islamic Finance // Islam Hukuku Araştırmaları Dergisi. — 2021. — № 38. — B. 108.
7. Ibn Manzūr M. Lisān al-‘Arab. — Bayrut: Dār Şādir, nashr yili ko'rsatilmagan. — J. 1. — B. 457.
8. Jaffer S. (ed.). Islamic Asset Management: Forming the Future for Shari'a-Compliant Investment Strategies. — London: Euromoney Books, 2004. — B. 72.
9. Udovitch A.L. Partnership and Profit in Medieval Islam. — Princeton: Princeton University Press, 1981. — B. 309–311.
10. Goodwin J. Lords of the Horizons: A History of the Ottoman Empire. — London: Vintage Books, 2003.
11. Valley, P. (2006). How Islamic inventors changed the world. The independent, 11.
12. “SUKUK: YANGI HUQUQIY INSTITUTGA TARIXIY NAZAR”. A.Jumagulov, 35-bet.
13. Musari Kh. The Evolution of Waqf and Sukuk toward Sukuk-Waqf in Modern Islamic Economy // Journal of Islamic Monetary Economics and Finance. — 2016. — Vol. 2, No. 1. — B. 46.
14. Jumag'ulov A.E. Sukuk: tarixiy nazar yangi huquqiy institutga // Yurisprudensiya: huquqiy ilmiy-amaliy jurnal. — Toshkent: Toshkent davlat yuridik universiteti, 2025. — № 2 (5-son). — B. 34.
15. Barbour D., Norton J., Slover T. Asset Securitisation in Emerging Market Economies: Fundamental Considerations // Yearbook of International Financial and Monetary Law. — Oxford: Oxford University Press, 1997. — B. 281, 294.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 4 (6) – 2026

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog‘lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).